

## AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING ROLI

Z.T.Alisherova – Andijon davlat  
pedagogika instituti o’qituvchisi  
G.I.Inomjonova –BT yo’nalishi talabasi  
E-mail: inomjonova2007@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19409970>

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot jamiyati sharoitida shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, bolalar va o’smirlar ongida axborotni to’g’ri qabul qilish, uni tanlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirishda ota-onaning o’rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, oilada axborot muhitini to’g’ri tashkil etish, farzandlarning internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish jarayonida nazorat hamda yo’naltirish mexanizmlarining pedagogik va psixologik jihatlari ko’rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, oilada sog’lom axborot muhiti yaratilishi farzandlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va axborotni ongli ravishda qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanishi izohlagan.

Kalit so’zlar:

axborot madaniyati, oila, ota-ona, axborot muhit, yoshlar tarbiyasi, media savodxonlik, psixologik tarbiya, axborot xavfsizligi, shaxs rivoji, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы формирования информационной культуры личности в контексте информационного общества. В частности, научно освещается роль родителей в развитии у детей и подростков навыков правильного восприятия, отбора, анализа и эффективного использования информации. Также рассматриваются педагогические и психологические аспекты правильной организации информационной среды в семье, механизмы контроля и руководства в процессе использования детьми интернета и средств массовой информации. По результатам исследования, создание здоровой информационной среды в семье является важным фактором формирования у детей самостоятельного мышления, критического анализа и осознанного восприятия информации.

Ключевые слова:

информационная культура, семья, родители, информационная среда, воспитание молодежи, медиаграмотность, психологическое воспитание, информационная безопасность, личностное развитие, социальная среда.

Abstract. This article analyzes the issues of forming an individual's information culture in the context of an information society. In particular, the role of parents in developing the skills of correctly perceiving, selecting, analyzing and effectively using information in the minds of children and adolescents is scientifically highlighted. Also, the pedagogical and psychological aspects of the correct organization of the information environment in the family, the mechanisms of control and guidance in the process of children's use of the Internet and mass media are considered. According to the results of the study, the creation of a healthy information environment in the family is an important factor in the formation of independent thinking, critical analysis and conscious perception of information in children.

Keywords:

information culture, family, parents, information environment, youth education, media literacy, psychological education, information security, personal development, social environment.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida axborot inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va boshqa axborot manbalari yosh avlodning dunyoqarashi hamda tafakkuriga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli yoshlarning axborotni tanlash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot madaniyati shaxsning axborot bilan ishlash jarayonidagi bilimlari, ko’nikmalari va axloqiy mezonlarining majmuasidir. Bu jarayonning shakllanishida ta’lim muassasalari bilan bir qatorda oila muhitining ham ahamiyati nihoyatda katta. Ayniqsa, ota-ona farzandning ilk ijtimoiylashuv muhitini yaratadi hamda uning axborotga bo’lgan munosabatini shakllantiradi.

“Bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va axborot texnologiyalarini puxta egallagan barkamol shaxslar etib tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir.”[1.Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti,2021]

#### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Axborot madaniyati va shaxs rivojiga oid ilmiy tadqiqotlar ko’plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan o’rganilgan. Xususan, psixologiya fanida shaxsning ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanishi masalasi alohida o’rin tutadi. Masalan, shaxs rivoji ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog’liqligi haqida mashhur psixolog Lev Vygotsky quyidagi fikrni bildiradi:

“Bolaning psixik rivojlanishi uning ijtimoiy muhit bilan o’zaro ta’siri jarayonida shakllanadi” [5.57-bet]

Mazkur fikrdan ko’rinib turibdiki, bola rivojlanishida oila muhiti, ayniqsa ota-onaning tarbiyaviy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda ham axborot madaniyatini shakllantirishda oilaning o’rni alohida ta’kidlanadi.

Ko’plab tadqiqotchilar media savodxonlik, axborot xavfsizligi va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalari oilada boshlangan tarbiya jarayonining natijasi ekanligini qayd etadilar.

#### Tahlil va natijalar

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni asosan quyidagi omillarga bog’liq:

Birinchidan, oiladagi axborot muhiti. Agar ota-ona farzandining internetdan foydalanish jarayonini nazorat qilsa va unga foydali manbalarni tavsiya etsa, bu bolada to’g’ri axborot tanlash ko’nikmasini shakllantiradi.

Ikkinchidan, ota-onaning shaxsiy namunasidir. Farzand ko’pincha ota-ona xatti-harakatlarini takrorlaydi. Agar ota-ona kitob o’qish, ilmiy axborotlardan foydalanish va yangiliklarni tahlil qilishga odatlangan bo’lsa, farzand ham shunday muhitda ulg’ayadi.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Farzand har qanday axborotni to’g’ri qabul qilishi uchun ota-ona unga savol berish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko’nikmalarini o’rgatishi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oilada axborot madaniyatiga e’tibor berilgan bolalarda quyidagi xususiyatlar ko’proq rivojlanadi:

- tanqidiy fikrlash qobiliyati
- mustaqil qaror qabul qilish
- axborotni saralash ko’nikmasi
- ijtimoiy mas’uliyat hissi
- Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida ota-ona muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Oila muhitida yaratilgan sog’lom axborot muhit bolalarning tafakkuri, dunyoqarashi va ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Ota-onalar uchun media savodxonlik bo’yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish.

Oilada kitobxonlik muhitini rivojlantirish.

Farzandlarning internetdan foydalanish vaqtini nazorat qilish.

Bolalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalarini o’rgatish.

Natijada yosh avlodning axborot madaniyati shakllanadi hamda ular zamonaviy axborot jamiyatida faol va ongli shaxs sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti,2021
- 2.Abdugodirov A. Axborot madaniyati asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
- 3.E.G’oziyev. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
- 4.Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. — London: Routledge, 2001.
- 5.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2018.
- 6.Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.
- 7.Qodirov B.R. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: Fan, 2016.
- 8.Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2019.
9. Alisherova , Z. (2025). O’smirlarning o’zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o’rni. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544–546. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2156>
10. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. (2025). The importance of emotional intelligence in the development of socio-psychological adaptation of adolescents. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>